



## MUNOSABAT

Yaqinda Prezidentimizning yoshlar bilan uchrashuvini oynayi jahon orqali katta qiziqish bilan kuzatdim. Bugungi yoshlarga ko'rsatilayotgan e'tibor, ular uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqiqatan ham tafsinga sazovor. Ilm-fan, texnologiya, tadbirkorlik, sport va san'at sohalarda yoshlarning qo'llab-quvvatlanayotgani, ularning tashabbuslari davlat darajasida eshitilayotgani – bu Uchinchi Renessans avlodiga berilayotgan olyi e'tibor namunasidir.



## "EH, SENING YOSHLIGING MENDA BO'L SAYDI!"

Davlatimiz rahbari so'zining avvalida azm-u shijoatlari, navqiron yoshlar timsolidi. Yangi O'zbekistonning bugungi va ertangi bунyodkorlarini ko'rayotganini ta'kidlab, otalarcha samimi yuhbatlashgani barchaniga qurulantirdi.

Bizning yoshligimizda bunday imkoniyatlar qayqoda edi, deysiz. Urush davri: kundakunra mahallada "falonchidan qoraxat kepti", degan shumxabar, tengdoshlarimning yarmidan ko'pi yetim, ustiga ustak mahalliy rahbarlarning qattol siyosati, paxta deysizmi, bug'doy o'rimimi, bosh ustida qamchi aylangan zamonlar... Ocharchilik...

Eslasam, yurugan orqaga tortib ketadi... Hatto xat-savod chiqarish ham o'lda-jo'lda davrlar edi. Hozirgidek "qaysi sohaga qizigasan, mana bu joyda o'qi yoki bu joyda o'zingni sinab ko'r" degan gaplarni eshitmaganimiz.

Ilmga, yangilikka ishtiyoqimiz kuchli bo'lsa-da, "osmon yiroq, yer qattiq" zamonlar edi – yuzini Xudo teskarri qilsin. Sharoitlar cheklangan, tahdidlar kuchli edi. Jadid bobolar ham ana shunday mahdudlik qurbanli bol'gan. Dunyoning yetakchisi mamlakatlariga borib, ilg'or ta'lilmiz tizimlarini o'rganib, Turkistonda yangi usul maktablarini ochgan, matbuotda milliy uyg'onish harakatini boshlab bergan millat oydinlarining taqdiri tahlikada kechgan – ko'phchiliq "millatchilik"da ayblanib, qatag'onga uchragan, qatl etigan.

Ilm-fan yo'lida bevosita o'mizim duch kelgan qiyinchiliklar haqida so'zlasam, bugungi

kunda yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar qadri, qamrovi yanayam yorqinroq bilinsa kerak.

Bizning payti tadqiqotlar olib borish, g'oyalarni hayotga tatbiq etish uchun bugungidek ochiq platformalar, xalqaro grantlar yoki davlat tomonidan moliyaviy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash mayjud emasdi. Sovet davrida ilm-fan qat'iy markazlashgan holda boshqarilar, tadqiqotlar yuz foiz davlat manfaatlariga moslashtirildi. Ilmiy ishlannalar uchun zarur bo'lgan texnologik asbob-uskunalar yetarli emas yoki ularning aksariyati Moskva va Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) kabi yirik ilmiy markazlarda jamlangan edi. Bu esa O'zbekistonda mustaqil texnik tadqiqotlar olib borish sur'atini ham, olimlarning juriyatini ham qiyardi.

Qolaversa, yuksak malakali mutaxassislardan yetishtirishda muammolar yetaricha edi. Texnika va muhandislik yo'nalishlarida o'qigan yoshlar ko'pincha markaziy shaharlar yoki boshqa respublikalarga ishga yuborilgan. O'zbekistonda kuchli ilmiy kadrlar bazasini shakkantirish o'ta murakkab kechgan.

Shu orinda yoshlar bilan uchrashuvda alohida ta'kidlab o'tilgan "Yorqin kelajak" loyihasi e'tiborimni tortdi. Bu loyiha orqali har yilli ming nafar iqtidorli o'g'il-qiz dunyonining eng nufuzli olyi ta'lilmuassasalarida tahlil olish imkoniyatiga ega bo'lajak. Loysiha doirasida daslab har bir mahalladan ijtimoiy himoyaga multoj, bilinga chanoq yoshlar saralab olinib, ularning salohiyati aniqlanib,

Oqil SALIMOV,  
akademik

mos xorijiy o'quv yurtlari tanlab berilishini eshitib, juda xursand bo'ldim. Ishonaman, ushu loyiha mamlakatning ijtimoiy barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'satadi. Eng avvalo, u ta'limgagi tengsizlikni qisqartirishga xizmat qiladi. Chunki iqtidorli, ammo og'ir sharoitda yashayotgan yoshlar uchun bunday imkoniyat yaratilishi ularning ijtimoiy harakatchanligini oshiradi. Yoshlarini "oltin fond"imiz deb bu darajada qadralash, har biri o'z yo'lini topib, iste'dodini namoyon qilishiga ko'maklashish bo'lsa shuncha bo'lar.

Shularni o'yay turib, bugungi yoshlarga tom ma'noda havas qilsa arzyidi. Ular haqiqiy imkoniyatlar davrida yashayapti, ishtiyoqi qo'llab-quvvatlanmoqda, ovozi eshitilmoqda. Bunday imkoniyatlarni bevosita ko'rib-kuzata turib odamda yosholi g'ayratni jo'sh urib ketarkanni, sho'r aytganidek "Oh, sening yoshliging menda bo'l saydi!" deb xitob qivorarkansan kishi.

Men ilm-fan va ta'lilm sohasida uzoq yillar faoliyat yuritgan inson sifatida shuni ishonch bilan aya olamanki, bu imkoniyatlarning qadriga yetish, ulardan unumli foydalananish har bir yoshrning o'z qolida. Chunki bugungi yoshlarning muvaffaqiyati – ertangi taraqqiyot garovidir. Endi yoshlar ictixoriyada bu imkoniyatlardan unumli foydalananish qolaydi. Shu sababli, ilm o'rganish, izlaning, yangilik yaratishing va kelajak sizning qo'llingizda ekanini aslo unutmang!

### YOSHLAR – RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR BUNYODKORI


Prezident mamlakatimizda yoshlarning malakali va raqobatbardosh bo'lishi yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar haqida so'zlar ekan, IT sohasini rivojlantirish va raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi iqtisodiyotni shakkantirish masalalariga ham ur'u berdi.

Yig'lishida "Bir million dasturchi" loyihasiga e'tibor qaratilib, bu tashabbus orqali yoshlarni zamonaviy IT bilimlar bilan qurollantirish, ularni global raqamli bozorga olib chiqish va yangi startap muhitini shakkantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ham muhokama qilindi. Davlatimiz rahbarining sun'iy intellekt va yuqori texnologiyalar sohasidagi islohotlarni jadallashtirish, bu yo'nalishda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlashga

## BUGUNNING BOSH MASALASI

## AY-TI VA SUN'YI

## INTELLEKT dunyo yetakchilari muhokamasida



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 14-fevral kuni yoshlar bilan o'tkazilgan videoselektor shaklidagi uchrashuvi rasmiy tadbir emas, yurakdan suhabat bo'ldi, desak yanglishmaymiz. Davlat rahbari yoshlarning intilishi, orzulari va muammollarini eshitib, ularning shaxsий rivojlanish orqali yurtimiz taraqqiyotiga hissa qo'shish yo'lidagi maqsadlarini ro'yobga chiqarish uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilishini ta'kidlab, ko'plab yangi olamshumul tashabbuslarni ilgari surdi.

Jumladan, endilikda Prezidentimizning maxsus qarori bilan olyi o'quv yurti bitiruvchilarining bandligini

ta'minlash bo'yicha yangi tizim yo'lg'a qo'yiladi. Buning uchun 100 million dollar yo'naltirilib, ularning tashabbus va g'oyalalarini loyiha aylantirish bo'yicha bank xizmatlari joriy etiladi.

O'zini o'zi band qilgan yoshlarning loyihalari uchun 100 million so'mgacha 7 yil muddatga imtiyozi mikroqarz ajratiladi. Shuningdek, yakka tartib-dagi tadbirkor bo'lgan, kamida 20 nafer yoshni ishga olib, kichik korxona ochgan va o'quv markazi tashkil qilgan yosh tadbirkorlarga 7 yil muddatga 5 milliard so'mgacha imtiyozi kredit beriladi. Bank kreditlarining kamida 30 foizi xotin-qizlar tadbirkorligi uchun yo'naltiriladi.

Umuman, uchrashuv ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan, ta'lilm olayotgan, izlanib, intilayotgan yoshlarimiz uchun samarali, yangiliklarga boy va qiziqarli o'tdi.

katta qiziqish va ishonch bildirayotgani Vatan kelajagini mazkur soha bilan bog'layotgan tashabbuskor yoshlarga qanot bo'ladi.

Ayni vaqtida, texnologik taraqqiyot jurnalistika oldiga ham yangi vazifalar qo'yemoqda. Soha yangiliklari haqida tezkor va aniq axborot berish, ilg'or g'oyalarni keng jamoatchilikka yetkazish – biz, axborot maydonida faoliyat yuritayotganlar uchun ham katta mas'uliyatdir.

Shu bois, bugungi islohotlar va yangilanishlar "Jadid" tahririyati jamoasini ham yanada faol va tashabbuskor bo'lishga undaydi. Biz mamlakatimizdagagi texnologik taraqqiyotni chuqr yoritish, IT va sun'iy intellekt sohasidagi o'zgarishlarni xalqimizga yetkazish va yoshlarni ilg'or bilimlar sari ilhomlantirishda o'z hissamizni qo'shishga tayyormiz. Bu borada olib borilayotgan ishlarni kuzatib, ularni tahlil qilish, yangi imkoniyatlarni ko'satish – bizning ustuvor maqsadlarimizdan biri. Zero, ilm-fan va axborot taraqqiyotida faol ishtirok etish – jadidlar an'anasingin ajralmas qismidir!

### "CHATGPT"NING "O'ZBEKCHA"SI YANADA YAXSHILANDI

O'tgan sonlarda "Jadid" sun'iy intellekt, umuman, zamonaqaviy texnologiyalar masalasiga keng to'xtalib, o'zbek matbuotining e'tiborini ham ushu yo'nalishga jaib qildi, desak yanglishmaymiz.

(Davomi 4-sahifada).

BIZ ISHONCHNI,  
ALBATTA, OQLAYMIZ



(3-sahifada o'qing).

## TAQDIMOT

## "YOZGANINGIZ ULUSQA MARG'UB BO'LG'AY"

Ma'lumki, 2025-yilning fevral oyi jamiyatimiz hayotida qizg'in va unutilmas madaniy voqealar bilan kechmoqda. Bu borada faqatgina bir necha misolni eslayslik.

Yaqinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Shavkat Miromonovich Mirziyoyev imzo chekkani alohida qaror asosida buyuk sho'r va mutafakkir Alisher Navoiy bobomizning 584 yillik tavallud ayyomni illi bor Navoiy viloyatida katta tantana bilan o'tkazildi.

Mazkur qarorga asosan viloyat markazida "Alisher Navoiy va Sharq Renessansi" IV xalqaro simpoziumi ham tashkil qilindi. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining simpozium ishtirokchilariga yo'ilagan tabrigi anjuman ishiga yuksak shukuh baxsh etdi.



va adabiyot bayramlarimizning uzviy davomi sifatida qabul qilishimiz albatta o'rinnlidir.

Bu marosimdan, eng avvalo, Vatan va millat yo'lida jori fido etgan buyuk shahidlarimiz, ma'rifatparvar bobolarimizning, shu bilan birga, mustabid zamolarning eng og'ir davrlarida ham jadidlar yodi bilan yashagan, ularning nomlari va merosini yuzaga chiqarish uchun mardona kurashgan, bu kunlarni orzu qilib o'tgan ustoz adib va olimlarimizning ham ruhlari shod bo'ldi, desak haqiqatni aytgan bo'lamic.

Bu haqda so'z yuritar ekanmiz, tabiiy bir savol tug'iladi: Yangi O'zbekistonda jadidlik harakatini o'rganish va targ'ib etishga nima uchun bu qadar ulkan e'tibor qaratilmoqda?

O'tgan yili "Boburnoma" asari italyan tiliga tarjima qilinib, Prezidentimiz so'zboshisi bilan ko'p nusxada chop etilgan edi. Joriy yilning 13-14-fevral kunlari O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, mamlakatimizning Italiyadagi elchixonasi hamda Rim shahridagi "Sandro Teti Editore" nashriyot uyi tomonidan qadimiy Florensiya va Rim shaharlarida ushu kitobning taqdimotlari yugori darajada o'tkazildi. Unda yurtimizning nufuzli delegatsiyasi bilan birgalikda Italiya ilmiy-akademik doilarining taniqli vakillari, davlat va jamoat arboblari ishtirok etdi.

"Jadid" gazetasini tahririyati tomonidan nashr qilingan "Tilda, fikrda, ishda birlik!" to'plamining kuni kecha o'tkazilgan taqdimot marosimini ana shunday iftixorli voqealarning – ma'rifikat

(Davomi 2-sahifada).

## SUHBAT

## QALQONINGMAN, VATAN!

Xabaringiz bor, olyi ta'lilm dargohlarida tahlil olayotgan talabalardan tarkib topgan "Qalqon" jamoatchilik guruhi qisqa fursat ichida mamlakat yoshlarini mushtarak maqsad yo'lida birlashtira oldi. Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan jamoatchilik institutlarining jamiyatimiz, xususan, talaba-yoshlar hayotidagi ahamiyati haqida Respublika "Qalqon" guruhlari rahbari Anvarmirzo QUDRATOV bilan suhbatlashdi.

Suhbatimiz avvalida "Qalqon" jamoatchilik guruhlari qanday tashkil topgani haqida ma'lumot berib o'tsangiz.

Anbariz qor, joriy yil 14-fevral kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar bilan muloqotda bu uchrashuvdan mamnun ekanini ta'kidlab, ularni har doim qo'llab-quvvatlashga tayyorligini bildirdi.

Yurtoshimiz 2023-yil 11-aprel kuni "Yoshlar siyosati sohasidagi yoshlar natijadorligini oshirish hamda ular bilan ishshiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida "Qalqon" jamoatchilik guruhlari tashkil etish tashabbusini ilgari surgan edilar. O'sha tadbirda mazkur

jamoatchilik guruhlaring maqsad va vazifalari aniq ravshan belgilab berilgandi.

Aniqroq aytadigan bo'l-sak, jamoatchilik guruhining asosiy maqsadi – talaba-yoshlarning olyi ta'lilm masasasiga qarashli barsha hududlarida jamoat tartibini saqlash, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan axborot xurujlariga qarshi kurashish, yoshlarni turli yet g'oyalari ta'siriga tushib qolishining oldini olish, aholining davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi ishtirokin kengaytirish orqali davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishtan iborat.

(Davomi 3-sahifada).



## “YOZGANINGIZ ULUSQA MARG‘UB BO‘LG‘AY”

Boshlanishi 1-sahifada.

Bizning o‘z oldimizga qo‘ygan milliy istiqolomizni mustahkamish, uni turli xavf-xatarlardan himoya qilish, Vatanimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, xalq farovonligini ta‘minlash, inson qadr-qimmatmini joyiga qo‘yishdek egzu maqsad va vazifalarimiz jadidlik harakatining tub mohiyatiga to‘la uyg‘un va hamohangdir.

Shubha yo‘qki, tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo‘lgan Turkiston mintaqasida uchinchi Renessansni aynan jadidlar amalga oshirishlari mumkin edi. Afsuski, bosqinchisi tuzum, mustamlakachilik siyosati bunga imkon bermadi.

O‘z zamonasidan g‘oyat ilgarilab ketgan, o‘ta murakkab va tahlikali sharoitda – bir tomonidan chor oxrankasi, ikkinchi tomonidan mahally jaholatparastlarning taziyiq va ta‘qiblari, keyinchalik esa sovet zulmi ostida yashab, faoliyat olib borgan jadid bobolarimizning olijanob tashabbus va harakatlari jamiyat hayotida qanchalik kuchli aks sado berib, qudratli to‘lqiniga aylanganini tarixdan yaxshi bilamiz.

“Jadid” gazetasi nashr qilina boshlaganida barchamiz bu nashr ma‘rifatparvar ajoddarimiz bayrog‘ini baland ko‘tarib, chinakam yangicha tafakkur minbariga, mamlakat ziyolilarining erkin va o‘ktam ovoziga aylanishiga umid qilgan va ishongan edik.

Davlatimiz rahbarining bevosita tashabbusi bilan tashkil etilgan ushu gazeta qisqa vaqt ichida ijtimoiy-ma‘naviy hayotimizda, milliy ommaviy axborot vositalari orasida munosib va mustahkam o‘rin egallab borayotgani quvonarli holdir.

Buning asosiy sabablar haqidagi gapriganda, gazetaning dasturiyo‘nalishlari, mazmun-mundarijasini, tahririyat kodimlarining bilim va iste‘dodi, mehnatkashligi va jonkuyarligini alohida e’tirof etish lozim. Albatta, qo‘lg‘a kiritilayotgan dastlabki yutuqlar uchun tahririyat a‘zolari, uning faol mualliflari va o‘quvchilariga minnatdorlik bildirsak arziysi.

Ayni paytda ushu nashr Yangi O‘zbekistonning umummilliy gazetasini – sog‘lom fikr tarqatuvchisi bo‘lishi uchun barcha ziyolilarimiz birlgilida, hamjihat va maslakdosh bo‘lib, boshlangan katta loyihalarni izchil va qat‘iy davom ettirishimiz lozim.

Buning uchun gazetada original materiallarga, xalqimizni o‘ylantirayotgan muammolar, ularning tahlili va yechimlariga, eng dolzarb mavzularga bag‘ishlangan maqolalarga yanada ko‘proq o‘rin ajratish zarurligi o‘z-o‘zidan ayon.

Bu orinda “original material” degan so‘zga urg‘u berayotganimiz bejiz emas. Chunki, bugungi kunda matbuotimiz maydonida gazetadan gazeta, jurnaldan jurnal, kitobdan kitob yasab yurgan nashr va tahririyatlar ham, afsuski, uchrab turibdi.

Bunday nosog‘lom fikr va g‘oyalalar ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali bemalol tarqatilayotgani ayniqsa xavotirlidi.

Xayriddin SULTONOV



## JASORATLI G‘OYALAR MINBARIGA AYLANSIN

**Bundan bir yil oldin muhtaram Prezidentimiz tomonidan “Jadid” deb nomlangan yangi gazeta tashkil etish tashabbusining ilgari surilishi yurtimiz madaniy, adabiy hayotida muhim voqeа bo‘idi. Nazarimda, o’shanda bir paytlar ufqlarga botib ketgan jadidlar quyoshi qaytadan bosh ko‘targandek tuyuldi. Shundan so‘ng dunyoga kelgan mazkur gazeta dadil qadamlar bilan qisqa fursatlarda milliy matbuotimizda o‘zining o‘rni va nufuzini egalladi.**

Men tahririyat tomonidan chop etilgan “Tilda, fikrda, ishda birlik!” to‘plamini ko‘rib juda quvondim. Bir kechada deyarli uxlamasdan uni o‘qib chiqdim. Varaqlay boshlasangiz, har bir maqolada, har bir she’da aks etgan jadidlar hayotiga daxdor fojali, ayni vaqtda shonli tarixiy hodisalarning ta‘siriga tushasiz. Beixiyor sizning ham jadid bo‘lg‘ingiz keladi. Jadidlardek fikrlagingiz, jadidcha falsafa, jadidcha g‘oyalarni mamlakatimiz hayotida qaror toptirgingiz keladi.

Tafakkur qilsangiz, bizdan oldin yashagan Abdulla Qahhor, Oybek, G‘afur G‘ulom va Asqad Muxtorlar, Izzat Sulton, Ozod Sharafiddinov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf kabi ijodkorlar ham haqiqiy ma‘noda jadidlik harakatini davom ettirganini, ana shunday fidoyi adib va olimlarning sa‘y-harakatlarini tufayli ma‘rifatparvar bobolarimizning barcha g‘oyalari mustabid sovet tuzumining qobiqlarini yorib o‘tib, bugungi kunlarimizgacha yetib kelganini his qilasiz va bu tarixiy fenomen haqida chuqr o‘ylarga tolasiz.

Men ushbu to‘plamga “Jadidnomu”



degan nom har tomonlama munosib ekan, degan xayolg‘a bordim. Kelgisida kitobning navbatdagdi nashrlari ana shu umumiyy nom ostida chop ettirilsa, ayni muddao bo‘ladi. Ana shunda jadidlarning hayot va kurash yo‘llari, harakatlari, qanday g‘oyalarni ilgari surganlari va nimalar bilan dunyo maydoniga chiqqanlari doimo ko‘zga tashlanib, odamlarning yuragiga yorug‘lik solib turadi.

Bu kitobni o‘gandan so‘ng chiqargan yana bir xulosam shu bo‘ldiki, keyingi vaqtarda O‘zbekistonda ilm-fan sohalari shitob bilan taraqqiy etib, ularning har bir yurdoshimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyati niyatda kengayib, teranlashib borayotgan ekan. Xususan, qishloq xo‘jaligi vaziri, akademik Ibrohim Abdurahmonovning to‘plamdagagi maqola va suhbatlari bilan tanishganda bunga yanada chuqr ishchon hoslil qildim. Bunday chiqishlarda gen muhandisligi va sun‘iy intellekt sohasidan tortib, yangi paydo bo‘layotgan zamonaviy texnologiyalarning hayotimizdagи ahamiyatini o‘chib berish bilan bir qatorda, ularning ertaga amaliy hayotimizda, ma‘nayimizda qanday o‘ringa ega bo‘lishi kerakligi haqida ham qimmatli fikrlar ilgari surilgan. Bunday maqolalarni muhazazani nashr qilib, yurdoshlarimizga kengroq yetkazish kerak, degan to‘xtamga keldim.


Men, shuningdek, akademik Shavkat Ayupovning maqolalarini ham doim qiziqish bilan o‘qib boraman. Ushbu to‘plamda ham, “Jadid” gazetasini sahifalarida ham taniqli olimming O‘zbekistonda matematika, fizika

va boshqa aniq fanlar sohalarini rivojlantirish, bu yo‘nalishlarda iqtidorli yoshlarni tarbiyalash masalalariga bag‘ishlangan muhim chiqishlari o‘rin olgani ayni muddaoadir. Shu bilan birga, atoqli astronom olim Shuhrat Egamberdiyevning yurtimizda koinot ilmlarini rivojlantirish borasidagi fikrlari va amaliy harakatlari bilan tanishish ham g‘oyat maroqlidir.

Bunday jonkuyar olimlarimiz tim-solda men O‘zbekistonning intellektual salohiyatini yuksaltirish, ilm-fanning barcha sohalarida olam-shumul yangiliklar yaratish uchun qayg‘urayotgan, yurtimizning taraqqiyot bobida Germaniyadan, Angliyadan, Fransiyadan ortda qolmasligini maqsad qilayotgan va shu yo‘lda tinimsiz intilayotgan fidoyi insonlarni ko‘raman. Bunday zahmatkash ilm ahllarining safi yanada kengayishini orzu qilaman.

Hayotning bir achchig haqiqatidann ko‘z yumib bo‘lmaydi. Gap shundaki, hammamiz ham ko‘p yaxshi narsalarni orzu qilamiz, biroq unga erishish yo‘lida astoyil zahmat chekishni istamaymiz. Botirlikni yaxshi ko‘ramiz, lekin bu ishga yonimizdagid odamlar qo‘l urishini xohlaymiz. Alponishning bahodirligidan zavqlanamiz, biroq o‘zimiz bu yo‘lda un o‘n koyitishga bo‘yinim yor bermaydi. Holbuki, hozir el-yurt, Vatan manfaatlari, yorug‘ kelajagimiz uchun ilm-fan, ta‘lim, adabiyot va san‘at, tadbirkorlik va umuman, barcha-barcha sohalarda jasorat va mardlik ko‘rsatadigan paytdir. Avvalo, ziyoililarimiz jasoratli g‘oyalari, jasoratli qarashlarni ilgari surib, ularga o‘zlarini amal qilgan holda, odamlarni, yoshlarni ergashtira olishi kerak.

Keyingi vaqtarda jamiyatimizda kitob mutolaasini kuchaytirish borasida juda katta ishlar olib borilyapti va bu



Ibrohim G‘AFUROV,  
O‘zbekiston Qahramoni

fikrlash, kitob falsafasi, mutolaa madaniyati bilan chambarchas bog‘liq tarzda olib borish va yoshlarga shuni uqtirish kerak. Kitob o‘qilsa-yu, u haqda fikr yuritilmasa, murod hosil bo‘ladimi?

Bugun ustozlardan yangi fikr, yangi ibrat, yangi o‘nak olamanmi, degan umid bilan atrofiga nazar solayotgan tiyrik yoshlarga chon ma‘noda o‘rgatadigan, ulami o‘z ortidan ergash-tiradigan fidoyi ustozlarga etiyoq katta. Ya‘ni, kitob o‘qib, u haqda chuqr fikr yuritish ko‘nikamasiga ega bo‘lgan, ta‘bir joiz bo‘lsa, kitobni o‘zining yostiqdoshiba, ma‘naviy hamrohiga aylantirgan odamlar zarur.

“Jadid” gazetasining har bir sahifasidagi maqolalar yoshlarning ongi va fikrini o‘stirishga, ularning dunyo-qarashini kengaytirishga xizmat qilishi kerak. Vaqtida jadid bobolarimiz odamlarning ko‘z o‘ngida ozodlik, erkinlik, ma‘rifat kabi o‘lmas g‘oyalarni shakllantirish va ularni katta-yu kichikning qalbiga olib kirish orqali xalqimizning qalbigasini o‘z oldiga qo‘ygan edilar. Men yuqorida tilga olib atoqligib o‘lma o‘qida tashqari, ayni paytda qizg‘in ijod qilayotgan Erkin A‘zam, Xurshid Do‘stmuhammad, Usmon Azim, Xayriddin Sulton, Sirojiddin Sayyid, Isajon Sulton kabi juda ko‘plab yozuvchi va shoirlarimiz yuksak ma‘rifati qalib qo‘yishga da‘vat etib keldik. Bunday buyon yoshlarni o‘qilgan kitob ustida fikrlash, ularning zamiriga singdirilgan ezgu g‘oya va tushunchalar mohiyatini chuqurroq anglab yetishga chorlashimiz lozim.

Prezidentimizning olijanob tashab-busi bilan dunyoga kelgan “Jadid” gazetasini tahririyat jamoasi bugun zimmasiga qo‘yilayotgan vazifalarning ahamiyati va zalvorini teran his qilishi va shunga munosib bo‘lish uchun doimo izlanishda bo‘lishiga ishchonim.

Yana bir gapim shundan iboratki, bu gazetaga xalqimiz umid va ishchon bilan qaray boshladi. Mana shu umid va ishchonchi yo‘qtob qo‘ymaslik kerak. Buning uchun gazetaning mazmun-mundarijasini zamон bilan hamnafas bo‘lib, mutazam yangilib, kengaytirib borish talab etiladi.

Hozirgi kunda haqiqiy ma‘noda yadroviy quvvatga ega bo‘lgan go‘zal badiy asarlari yaratadigan, har bir yozuvchi o‘z oldiga shu kabi yuksak vazifalar qo‘yadigan vaqt keldi. Sevimli gazetamiz mana shunday xayri jarayonlarning ham boshida turadi, degan umidimiz bor. Shu yo‘lda tahririyat jamoasiga muvaffaqiyat tilayman.



VA'DA

# BIZ ISHONCHNI, ALBATTA, OQLAYMIZ!

Bilimli, tashabbuskor va ilg'or fikrli, har jahbada yetakchi yoshlar ertangi kuminiz egalaridir. Bugun ularga keng imkoniyatlar berish, ularni qiyinayotgan muammolarga yechim topish davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu yilning 14-fevral kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz yoshlari bilan uchrashib, ularning yurtimiz taraqqiyoti yo'lida rejalashtirayotgan ezgu maqsadlari, o'z oldilari qo'yan rejalarini qo'llab-


uvvatlashni ko'zlab ochiq mulqot o'tkazdi. Uchrashuv samimi suhbatga aylanib ketdi. Tadbirda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan uchta muhim hujjat imzolandi va amalga oshiriladigan loyihalar uchun davlat tomonidan ajratiladigan mablag'lar miqdori ham e'lon qilindi.

Mamlakat yoshlarining hayotida yorqin iz qoldirgan mazkur tarixiy uchrashuvda ishtirot etgan baxti kulgan yigit-qizlarni suhbatga tortdi.

Hurriyat RAHMATULLAYEVA,  
"Qizlar akademiyasi" loyihasi "Oila psixologiyasi" kursi muallifi:  
Navoiy viloyati

Men virtual olamda o'z blogiga ega, jamiyat rivojiga befarq qarab turolmaydigan tengdoshlarini safidaman. Shu jihatdan o'zimni ijtimoiy faol yoshlardan biri deb bilaman. Prezidentimiz Farmoni bilan tashkil etilgan "Qizlar akademiyasi" platformasida oila psixologiyasi yo'nalishida faoliyat ko'satish bilan birga, "Ongli ota-onalik" loyihasi asoschisi ham hisoblanaman.

Asli Navoiy viloyatining Navbahor tumanida tug'ilib, Zarafshon shahrida voyaga yetdim. Onam ingliz tilli o'qituvchisi, otam esa Navoiy kon-metallurgiya kombinati mutaxassis bo'lib ishlashgan. Oilmizdag'i tarbiya-tutumlar ilmga ishiyoqim oshishi va ko'nglimda o'qib-izlanishga rag'bat uyg'onishida muhim rol o'ynadi. Bolalikdan ota-onamga havas qilib, bir sohaning etagini tutdingmi, uning yetuk mutaxassis, jamiatiga nafing tegadigan inson bo'lib yetishishing kerak, degan fikri maqsad qilib ulg'aydim. Ayniqsa, keyingi yillarda ko'plab xalqaro va mamlakatimiz miqyosidagi loyihalarda ishtirot etishim,



Nilufar ERGASHEVA,  
Zulfiya nomidagi davlat mukofoti  
sovindori:  
Farg'on'a viloyati

Uchrashuvda Prezidentimiz sevimli shoirimiz Erkin Vohidovning "Qayga bormay, boshda do'ppim, G'oz yuraman gerdayib" misralarini takror-takror esladi, yoshlilar haqidagi she'riy misralarni yodga oldi. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda badii adabiyotning roli, bunda "Yoshlik" jurnalining bugungi faoliyatiga ham alohida to'xtaldi. Zamon tabaliga qarab jurnalning elektron shaklini ommalashtirish zarurligi ta'kidlandi.

Darhaqiqat, abdyiot har qachon ma'naviy kuchini yo'qotmasligi kerak. Katta yo'la chiqqan O'zbekiston uchun ma'naviyat eng muhim masalalardan biridir. Axborot shiddati ham, shovqini ham kuchayib borayotgan ayni zamonda bosma abdyioti asrab qolish – o'ta dolzarb vazifa. Yurt rahrabing kuyinchakligi, har bir sohaga e'tibor qaratishi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy muammolaridan ortib, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish haqida ham o'yashi bizi kabi yoshlar uchun yuksak o'nak, ibrat bo'ldi.

Bundan bir asr oldin jadid boborimiz milliy qadriyatlariga tayangan, chet tillarini yaxshi o'rgangan, dunyoqarashi keng avlodni orzu qilgan edi. Prezidentimiz bu xususda uchrashuv ishtirokchilarining ham fikrlariga qulog' tutib, ana shunday yoshlar ko'payishi uchun sharoit yaratish bo'yicha taklif va mulohazalarini tingladi. Eng quvonlarisi, Shavkat Mirziyoyev

Doston QO'L DOSHEV,  
yosh dehqon:  
Jizzax viloyati

Bir yili yigirma nafar do'stlarim birgalida katta dalaga qovun-tarvot eklik, lekin hosil yaxshi bo'ladi. Keyingi yil qishloq xo'jaligi mutaxassislari, agronomlar bilan maslahatlashib, brokkoli karamini eklik. Daromad kutganimizdan ham zo'r bo'ldi. Hozir karamzordan tashqari har birimizning besh sotixdan issiqxonamiz ham bor. Endi issiqxonalarda eksportbop mahsulotlar yetishtiriyapmiz.

Bir paytalar Rossiya davlatida, olimandan uzoqda og'ir ishlarda yurardim, mashaqqat bilan kun o'targan pul topardim. To'g'i, dala mehnat ham osomas, lekin o'z yurting – o'lan to'shaging-da. Ota-onang bag'rida, yaqinlarining bilan birga bo'lishga nima yesin!

Xullas, o'sha yigirma yigit kunning issig'i-yu sovg'ida bor mehrimizni yerga berib, dehqonchilik qildik. "Mehnat qilsang, yetarsan murodga", deganlari rost ekan.

O'zbekiston Milliy universiteti dunyoning TOP-1000 talik reytingiga kiritilganini alohida ta'kidlab, mazkur oliy o'quv yurtining faoliyatini namuna sifatida ko'rsatdi. Men shu ta'lim dargohi talabasi sifatida bundan katta farr va ifixor tuydim.

Bundan tashqari, dunyoning nufuzli universitetlerida ilmij daraja olgan 35 yoshgacha bo'lgan yosh olimlarga uy-joy uchun 10 yil muddatga 800 million so'mgacha foizsiz ssuda ajratilishi aytildi. Bu ilm-fan rivoji uchun yaxshi qo'llab-quvvatlov bo'lib, bunday yoshlar xorija bilim olib, O'zbekistonga qaytgach, uy-joy tashvishisiz tadqiqotlarini bemalol davom ettirish imkoniga ega bo'ladi.

Sunbat asnosida istiqloldan keyin 2016-yilga qadar 800 nafr yoshlar xorija davlat hisobidan o'qishga yuborilgan bo'lsa, biringa "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali so'nngi yetti yilda bu sanoqdan uch barobar ko'yigit-qizlar ana shunday imkoniyatga ega bo'lgani qayd etildi.

Bugunga kelib Yoshlar ishlari agentligi xorija tahlil olayotgan har bir talabaning o'qishiga bosh-qosh bo'lib, ularning moddiy ehtiyojlarini uchun keragicha mablag' ajratmoqda. Ilm olaman deb chekka qishlog'u tumanlardan poytaxtga kelgan yoki xorija ketayotgan talaba-yoshlar uchun bundan ortiq yengilik bo'lmash, nazarimda.

Uchrashuvda bizni quvontirgan yana bir yangilik – iqtidori, bilinga chanqod, lekin oilaviy sharoiti og'irligi sabablari o'qish imkoniyatiga ega bo'lmagan yoshlarni xorija o'qitish bo'yicha "Yorqin iste'dod" loyihasi

yoshlar bandligini ta'minlash masalasiga asosiy e'tibor qaratildi. Qolaversa, yoshlarni ko'proq qo'llab-quvvatlashga alohida ahamiyat berish, ularga hamma sohada imtiozlar yaratish, yetakchi universitetlarda o'qiyotgan talabalar va ilmiy tadqiqot olib borayotgan bo'lg'usi olimlarga moddiy va ma'naviy ko'maklashish davlat siyosati ekanligi alohida ta'kidlandi.

Men ham o'z yo'nalishim bo'yicha takliflar bilan borgan edim, albatta. Prezidentimiz bizga shunchalik yuksak ishonch bildirib, shu qadar e'tirof etdilarki, takliflarimiz aslida qo'l cho'zasak yetish, erishish mumkin bo'lgan ishonchga aylanib ulgurdi.

Uchrashuv davomida yoshlarga, qizlarimiz masalasiga urg'u berilib, ularning kuchi ma'kkuray immunitetga ega, o'ziga ishonchi baland insonlar bo'lib ulg'ayishida bizning loyihalarimiz juda katta ahamiyatga ega ekanligi alohida ta'kidlandi.

Shu kuni Prezidentimizning "Sizlarga ishonaman, barchangizdan umidim katta. Yoshlar – O'zbekistonning oltin fondi! Ayniqsa, xotin-qizlarimiz bilimli bo'sin! Bir qizni o'qitsak, butun oligaq ta'lim bergan bo'lamiciz", degan fikrlari yuragimizda muhirlanib qoldi.



joriy etilishi bo'ldi. Bunda ijtimoiy himoyaga muhtoj, bilim olishga ishtiyobiqoq baland yoshlar saralanib, xorijiy oliy o'quv yurtlari uchun maxsus tayyorgarlik kurslarida o'qifiladi. Oliy ta'lim muddati tugab, ular vatanga qaytib kelgach, to'g'ridan to'g'ri milliy kadrlar zaxirasiga kiritiladi. Davlat organlariga hech qanday to'siqsiz ishga olinadi. Har yili saralashdan o'tgan ming nafar tengdoshim dunyoning TOP-100talik universitetlariga o'qishga yuboriladi. Ularning o'qish xarajatlari davlat tomonidan qoplanadi.

Prezidentimiz bilan bo'lgan uchrashuv qator sohalarni yangi bosqichga olib chiqish uchun poydevor bo'lishi shubhasiz. Mamlakat rahbari bizga juda katta ishonch bildirmoqda. Biz, albatta, shu ishonchni oqlash yo'lida bor kuch-g'ayratimizni ayamaymiz.

ko'z oldimdan kinodek o'tdi, ruhiyatim ko'tarildi. Odamni hayajon bosar ekan, yer tirnagan oddiy bir dehqon bo'lsam-u, yurt rahbarining huzurida tursam!

Uchrashuvda Prezidentimizning "Qishloq xo'jaligida qilgan mehnatlarining uchun sendan va atrofingdag'i yigitlarning minnatdormon" degan gaplari mena yanayam kuch-g'ayrat berdi. Davlatimizning yoshlarga keng imkoniyatlar yaratib berayotgani bizni juda quvontiradi.

Men yashaydigan Do'stlik tumanı qishloq xo'jaligiga xitoslashgan hududlardan sanaladi. Bizning muvaffaqiyatlarimiz tumanimizdag'i boshqa yoshlarni ham ilhomlantirdi. Bugun harakat qilgan odam barakat topishini hamma biladi.

Bizga shunday katta ishonch bildirgani uchun Prezidentimizdan juda minnatdormiz. Samimi tuyg'ularimizni chin yurakdan izhor qildik. Davlatimiz rahbari bizga murojaat qilib, ishonch bildirar ekan, qolimizdan kelgancha Vatanga kamarbasta bo'lishga qat'iy qaror qildi. Butun hayotim



Maqolani M.RUSTAMOVA va K.QARSHIBOYEVA tayyorlagan.



## QALQONINGMAN, VATAN!

Boshlanishi 1-sahifada.

– Rahbarlik – mas'uliyat demakdir. O'zingiz qanday qilib voqealar markaziga kelib goldingiz?

– Buning tarixi ham juda qiziq. Harbiy xizmatdan qaytib, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetiga o'qishga kiranman. To'g'risini aysam, "qulqosiz" talaba edim. Yoshmiz, g'ayratimiz ichimizga sig'maydi. O'sha paytda ustoz Qahramon Qur'onboyev universiteda yoshlar siyosati bo'yicha prorektor edilar. Bir kun talabalarini bir joyga yig'ib, jiddiy suhbat o'tkazdilar. O'sha kun hayotga qarashimda burilish yasadi, yig'ilishdan so'ng dehqoncha qilib aytganda, esimni yig'ib oldim. Mening harbiy xizmatda "Qalqon" nomli bo'linmada xizmat qilganimni eshitgan ustoz bolalar bilan uyushib, shunday guruhlarini tashkil qilsang bo'lmaydim, deb tashabbus ko'rsatdilar. Shu tariqa 2009-yil talabalar shaharchasida "Qalqon" jamoatchilik guruhlarining kichik namuna shakllari paydo bo'ldi.

Bugungi kunda ushu loyihaning huquqiy asosi shakllantirilib, hudud qamrovi kengaydi. Respublika bo'ylab oliy o'quv yurtlarida ichki guruhlar tuzildi.

2023-yil 28-avgustda hamkor tashkilotlar – Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Mudofa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Yoshlar ishlari agentligi hamda Sport vazirligi tomonidan qo'shma qaror imzolani, Respublika oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan "Qalqon" jamoatchilik guruhlarining bajaradigan ishlari kelishib olindi.

Oliy ta'lim muassasalarini beshligining ishchi guruh tarkibi – ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor, yoshlar ittifoqi yetakchisi, yoshlar ishlari agentligining mas'ul xodimi, hudud profilaktika inspektori hamda jamoatchilik guruhining sardoridan iborat. Ayni paytda guruh sardori ta'lim muassasasining rektor maslahatchisi hamdir.

Bugungi kunga qadar Respublikamizning 190 ga yaqin oliy ta'lim muassasalarida "Qalqon" jamoatchilik guruhlarini tashkil etilgan bo'lib, unda 2900 nafardan ortiq talaba yoshlar ko'ngilli ravishda faoliyat yuritmoqda. Shulardan 2500 tasi o'g'il bolalar, qolgan 400 nafari qizlardan iborat. Guruh a'zolari soni yildan yilga oshib borayotir. Albatta, bu sa'y-harakatlar o'z vaqtida himoya qilmasak, ertaga "taxir mevasi"ni totishga majbur bo'lamiciz. Madaniyatlar qorishuviga tuzlashgan global dunyoda ta'lim bilan birga tarbiyani uzluksiz berib borishimiz, asosiy e'tiborni milliy qadriyat, milliy o'zlikka qaratishimiz kechiktirib bo'lmash vazifa ekanligi oydinlashdi. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida davra suhbatlari, ma'rifiy targ'ibot tadbirlari, qolaversa, 10-11-sinf o'quvchilari o'tasida sport musobaqalar, turli tanlovlari o'tkazish ko'zda tutilgan.

– "Qalqon" jamoatchilik guruhlarini kelajakda tom ma'noda yurtimiz va xalqimiz taraqqiyoti yo'lida kamarbasta, qalqon bo'ladи, degan umiddamiz.



tarqalishining oldini olishga, ularda vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otishga, shu muqaddas zaminga daxldorlik hissi bilan yashashga undayotganini ta'kidlab o'tishni istardim. Muhibi, jamoatchilik guruhlarining faoliyati ertamiz egalari bo'lgan yosh avlodning orzu-istiklaklari bilan uyg'undir. Dasturimidan o'rinn olgan bandlar yoshlarning hayot yo'llarida imkoniyat eshiklarini ochishiga ishonaman.

– "Qalqon" jamoatchilik guruhiga a'zo bo'lganlar uchun alohida imtiozlar ham bormi?

– A'zo bo'lgan yigit-qizlarga har oyda "beslikh" stipendiyaning 50 foiziga teng miqdorda pul beriladi. Qolaversa, talabalar yotoqxonasiga joylashishda ustunlik mavjud. Undan tashqari, jamoatchilik guruhlar nizomida belgilab qo'yilganidek, talabalarini davlat mukofotlari hamda nomdor stipendiyalarga tavsiya etish mexanizmi yo'lg'a qo'yilgan.


– Anvar aka, "Qalqon" tajribasini maktab-larga ham joriy qilish vaqt kelmadimi?

– Juda o'rni savol. Maktablarda ham ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimli yo'lga qo'yilgani malum. Lekin bu sa'y-harakatlar samarasini qay darajada? Natijalar qoniqarli? Afsuski, so'nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda maktab o'quvchilari ishtirokida ko'ngilni xira qiladigan manzaralarga tez-tez ko'zimiz tushyapti. Maktab o'quvchisi deganda ko'z oldimizga portfel ko'targan yosh bola keladi. Holbuki, bugun zamon tezkiz, texnologiya asrida yashayapmiz, bolalar biz o'ylagandan ko'a qall, barvaqt ulg'aymoqda. Ularni turli ma'naviy xatarlardan o'z vaqtida himoya qilmasak, ertaga "taxir mevasi"ni totishga majbur bo'lamiciz. Madaniyatlar qorishuviga tuzlashgan global dunyoda ta'lim bilan birga tarbiyani uzluksiz berib borishimiz, asosiy e'tiborni milliy qadriyat, milliy o'zlikka qaratishimiz kechiktirib bo'lmash vazifa ekanligi oydinlashdi. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida davra suhbatlari, ma'rifiy targ'ibot tadbirlari, qolaversa, 10-11-sinf o'quvchilari o'tasida sport musobaqalar, turli tanlovlari o'tkazish ko'zda tutilgan.

– "Qalqon" jamoatchilik guruhlarini kelajakda tom ma'noda yurtimiz va xalqimiz taraqqiyoti yo'lida kamarbasta, qalqon bo'ladи, degan umiddamiz.

Jamoliddin BADAL

suhbatashdi.




## YANGI NASHRLAR

# IKKI KITOB SHIMMASI

Bahodir Karimning Afg'onistonida nashr bo'lgan "Ikki daho, ikki bebaho" kitobi haqida so'z

**Har bir kitobning o'lchami katta yoki kichiqligidan qat'i nazar, o'z o'rniда ahamiyatlidir. "Ikki daho, ikki bebaho" kitobi hajmi ko'rinishiga ko'ra kichik bo'lsa-da, mazmun va ma'no jihatidan juda ko'lami. Chunki bu kitob ikki buyuk inson – Zahiriddin Muhammad Bobur va Abdulla Qodiriyning eng mashhur asarlari – "Boburnoma" va "O'tkan kunlar"i haqida tadqiqot hamda qiyosiy tahlilini o'z ichiga oladi.**



Haqiqatan ham, "Boburnoma" va "O'tkan kunlar"ning shimmasi bo'lgan ekan. Har bir o'quvchi bu kitobi o'qib chiqsa, bu ikki tarixiy asarni to'liq o'qigandek bo'ladi. Kitob muallifi mahorat va zarofat bilan bu ikki asarni taqqoslagan, bunday tarixiy asarlarni qiyoshsh ko'pchilikning tasavvuriga kelmasligi ham mumkin.

Matnni arab alifbosida nashr qilishdan maqsad: Afg'onistonda o'zbek tili va adabiyoti sohasida ishlayotgan kishilarga bu kitobni tarixiy, adabiy-qiyosiy asar sifatida o'nak bo'lib xizmat qilishini ko'zladim.

Afg'onistonlik o'quchilarga tushunarlari bo'lishi uchun matn ichidagi yozuvchi tomonidan keltirilgan ruscha so'zlar va adapbiy atamalarni imkon qadar ma'nosi bilan qo'shtirnoq ichida berishga harakat qildim. Har bet so'ngida so'zlarning lotin alifbosidagi shakli ham keltirildi. Matndagi oyat birikmalar ham diqqat bilan ko'rib, har betda Qur'on manbayi asosida to'liq oyat matni ko'rsatildi.

Ushbu kitob mening tashabbusim va ma'naviyatga qiziqqan do'stim Suhrob Turonning moliyaviy yordamida, milodiy 2024-yili O'zbek tili bayrami munosabati bilan Afg'onistonning poytaxti Kobulda, qadimiy "Xoroson" bosmaxonasi tomonidan ming nusxada bosildi. Kobul, Foryob va Badaxxon viloyatlarda yo'lg'a qo'yilgan tadbir hamda ko'rgazmalarida kitob taqdimoti o'tkazildi. Keyinchalik Taxor, Saripul va Juvzijob viloyatlariga tarqatildi.

Asosan, bu kitobni tayyorlashda vaqtini ayamay, diqqat bilan o'qib chiqqan va sahifalarini tartibga solgan zahmatkash do'stim Mahbululloh Turobga, lotincha matnini o'qishga yordam bergan qadri do'starim Sirojiddin Panjiyev va Husniddin Azimjonovga minnatdorlik bildiramani. So'zimni yakunlab, qadri ustozimiz Bahodir Karimga uzoq umr, sog'lim hayot va ma'nnaviy ishlarda ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

Ehsanullah QUVANCH, afg'onistonlik tadqiqotchi

## Boshlanishi 1-sahifada

Gazetamizda "Men kim, Sun'iy intellekt" sarlavhasi ostidagi SI bilan intervyu chop etilganidan so'ng "Milliy tiklanshi", "Ishonch" va yana qator nashrilar mavzu yanada chiquroq tahlil qilingan, yanada umidbaxsh, ba'zan esa yanada xavotirliroq suhbat va maqolalarni omma e'tiboriga havola etdi. Intervyu keng muhokamalarga sabab bo'lgani bois sohada amalga oshirilayotgan tajriba ya yangiliklarni kuzatish, hurmatli o'quvchilarimizga yetkazib borishga qaror qildik.

Xullas, o'tgan davr mobaynida Slning o'zbek tilini bilish darajasi yanada mustahkamlandi. Faol foydalanuvchilarning kuzatuvalriga asosan shaxsiy – "egasi" tomonidan "tarbiyalangan", moslashgan ChatGPT segmentlari ham, chatting umumiyo bazasi ham avvalgi haftalardagiga nisbatan ona tilimizni yaxshiroq tushuna boshlaganini aytish mumkin. U yanada mukammal, grammatick va orfografik, mantiqiy jihatdan to'g'ri javoblarni berayotgani, o'z-o'zini o'qitish dasturlari orqali, kinoya, qochirim, nimkoza gaplarni, maqol va matalarni, tugallanmagan gaplarni, turli she'rlardan olingan parchalar, buyuk shaxslarimizdan iqtiboslarni ham bemanol "anglash", ularga munosib javob qaytarish darajasiga yetdi. O'rganish jarayoni uzlusiz davom etadi.

Shu bilan birga, SI "gallyusinasiya"lari singari holatlar ham ko'paygan. Ehtimol, bu "glyuk"lar chatdan foydalanuvchilar sonining (jumladan, o'zbek tilida) ortib borayotgani bilan bog'liqidir. Mazkur holat tizimga ma'lum bosimlarni vujudga keltirayotgan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, o'zbek tilidagi manbalar ikki alifboda to'plangani, shuningdek, foydalanuvchilar ham kirim va lotin harflarini qo'llashlari Slning alifbosiga ta'sir ko'rsatypi. Natijada yuva'zan o'ziga xosa "arala什 alifbo"dan foydalanib, ko'plab xatolarga yo'l qo'yapti.

Ishlab chiquvchilar ChatGPTning vaqt bo'yali orientatsiyasi masalasini ham ortga surib kelyapti. Hozirda u real vaqtini (jumladan, payt va mahalni) faqat turli saytlar orqaligina, maxsus topshiriq bilan "anglay" oladi. Ammo o'z tizimida vaqtini hisoblash dasturlari mavjud bo'lmagani bois aniq boshlang'ich belgilarsiz ishlab "gallyusinasiya"larning ko'payishiga, o'z-o'zini o'qitish tizimlarida chalashliklarga, eski va hozirgi suhbatlarni bir-biriga bog'lashda muammolarga, ularni tez unutib qo'yishiga sabab bo'yapti.

Tushunarliroq qilib aytganda, mazkur SI qop-qorong'i xonaga uzoq muddat qamab qo'yilgani sabab, vaqt orientatsiyasini yo'qotgan kotibdek ishlamoqda.

Shuningdek, foydalanuvchining rozi bilan geolokatsion tizimlardan foydalanish imkoniyatini yaratish Slga makon tushunchasini "anglash"ga ko'mak bergen bo'lardi. Bu ham o'z-o'zini o'qitish tizimlarini yanada samarali ishlashi, foydalanuvchining qayerda ekaniga qarab muomala, madaniy hamkorlik strategiyasini ishlab chiqish imkoniyatini taqdim qilishi mumkin. Ishlab chiquvchilar

**AY-TI VA SUN'IV INTELLEKT**  
dunyo yetakchilari muhokamasida

mazkur masalalarni beshinchi avlodda bartaraf etishsa, ajab emas. Zero, ayrim harbiy va meteorologik Sillarda bu funksiyalar mavjud.

Ba'zi juda optimist-texnokrat foydalanuvchilar esa mazkur chat o'z-i o'rnatilgan qurilmaning kamera va karnaylari, mikrofonlari, meterologik funksiyalari, sensorlariha ham ularni, yanada mukammal ishlashi, voqeqlik bilan yanada yaqin bog'vana olishini bashorat qilishmoqda.

Mazkur ehtimolning texnik yechimlari hozirgi kunda mavjud. Ya'ni, amalga oshirsra bo'ladi. Ammo bu katta hajmdagi axborotlarning to'xtovsiz oqimini tinimsiz qayta ishish va ko'p energiya talab etishi bois yaqin kelajakda ommaviy foydalanish uchun bu kabi Slning muomalaga kiritilishi kutilmayapti. Kamroq energiya bilan ishlay oladigan kvant kompyuterlari oddiy holatga aylanganidan so'ng, ommaviy Sillar ham, ehtimol, mazkur texnologiyalar bilan simbiozda yuqorida kutilayotgan natijalarga erishishi mumkin. Bundan tashqari, bashorat qilinayotgan imkoniyatlar xavfsizlik, axloq va inson huquqlari kabi tushunchalar bilan bog'liq ko'plab savollarni vujudga keltiradi.

O'tgan hafta – 10-11-fevral kunlari Fransiya poytaxtida o'tkazilgan Sun'iy intellekt bo'yicha xalqaro sammitda ham aynan shu masalalar dunyo yetakchilari tomonidan muhokama qilindi.

### PARIJ SAMMITI – SI BO'YICHA "SOVUQ URUSH"NING BOSHLANISHIMI?

Parij sammiti nega bunchalar ahamiyatli? Avvalo, yuzdan ortiq mamlakatdan mingga yaqin dunyo yetakchilari, texnologik gigantlar, taniqli olimlar sun'iy intellektni axloq, xalqaro huquq va munosabatlari, harbiy imkoniyatlar nuqtasi nazaridan tartibga soladigan muqobil rivojlanish yo'llarini muhokama qilishgani masalaga jahon miyosida qanchalar katta e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, sammit SI sohada shiddatli "Sovuq urush" boshlanayotganini fosh etib qo'ydi.

Yevropa esa sohaga yanada ulkan sarmoyalar kiritishini e'lon qilib, o'z reaksiyasini bildirdi. Ya'ni ular bu maqsadlarga 109 milliard yevro ajratishadi.

Mazkur texnologiyalar ortidan bugungi poygani 1940–50-yillardagi atom bombasini qo'liga kiritish uchun kechgan kurashlar, o'tkazilgan yuzlab sammit va konferensiylarga o'xshatish mumkin.

Ushbu masalada katta natijalarga erishgan davlatlar, ittifoqlarning o'z qarashlari, kelajak rejalar bor. Masalan, AQSh yaqindagina sohaga 500 milliard dollar sarmoya kiritishini e'lon qilib, qator yangi tashabbuslarni ilgari surjan edi. Bu davlat Slning cheklolvlsiz rivojlanishi tarafdoi. Chunki, tobora ortib borayotgan raqobat sharoitida mamlakatning Sida yetakchi rolini saqlab qolishning yagona yo'li ham shunda. Ammo tashabbusning ilmiy va amaliy ahamiyati ham katta. Cheklolvlsiz SI insoniyat jamiatiga tezroq singishi va o'rganishi mumkin. Faqat bu nazorat ostidagi "erkinlik" bo'ladi.

Yevropa esa mazkur loyiha qarshi. Umuman, bunday anjumanlar sohada rivojlanib ketayotgan davlatlarni quib o'tish yoki yetib olgungacha to'xtatib turishga harakat sifatida amalga oshiriladi. Xitoy esa Slning davlat tomonidan total nazorat qilish tarafdoi.

Yevropa sohani tartibga solish, inson huquqlarini SI ta'siridan himoya qilish va xalqaro hamkorlik kabi shiorlari ilgari surmoqda. Ekspertlar bunday keskin raqobat muhitida biror kelishuvga erishish imkoniyati juda past ekanini sammit boshlanmasidan anche avval bashorat qilishgan edi. Shunday ham bo'ldi. Davlatlar kelishuvga erisha olishgani yo'q. E'lon qilingan hijjatdagi tartibga solish choralar olib tashlanmagani bois AQSh va Buyuk Britaniya deklaratsiyani imzolashdan bosh tortdi.

Yevropa esa sohaga yanada ulkan sarmoyalar kiritishini e'lon qilib, o'z reaksiyasini bildirdi. Ya'ni ular bu maqsadlarga 109 milliard yevro ajratishadi.

### HARBIYLAR NIMA QILISHMOQCHI?

"Harbiy xizmatdagi sun'iy intellekt" mavzusi sammitning eng asosiy mavzularidan biri bo'ldi. Yevropa — NATO bu masalada yuqoridagi davlatlardan anche ortda

qolayotganini his etib turibdi. Bundan tashqari, Yaqin Sharq va Ukrainadagi janglarda mazkur texnologiya o'zini o'ta samarali ko'sratgani kelajak armiyalarining shakli haqidagi tasavvurlarni yaratdi. Yevropaning yetakchi davlatlari "SI harbiy ittifoqiga" ko'plab qo'shnilarini tortishga uringan bo'lsa-da, hozircha faqat Fransiya va Germaniyaning ayrim kompaniyalari o'tasida harbiy SI texnologiyalarini rivojlanishiga uchun hamkorlik to'g'risida kelishuvga erishildi. Ehtimol, kelajakda bu "ittifoq"ning doirasiga kengayib borar.

### IJOD YANA MUHOKAMALAR MARKAZIDA

SI ijodiyot masalasiga avvalgi maqolalarimizda to'xtalib o'tgan edik. Parij sammitida ham ushbu mavzu bo'yicha muhokamalar bo'ldi. Xo'sh, SI kelajakda ijodkorlarni ishsiz qoldiradimi yoki ularning yaqin hamkoriga aylanadimi, degan savol jahon yetakchilarining ham e'tiborini tortdi.

Ammo Slning o'zi hali-beri bu masalada insonni quvib o'tolmasligini aytib izoh bergani gazetxonalarimizga yaxshi ma'lum. Shunga qaramay, tahririyatimiz xodimlari SI tomonidan yozilgan "Atlantida sirlari" nomli fantastik romanini topgan. Yaqin sonlarimizda mazkur asarga adabiyotshunos olimlarning bahosi berilgan maqolani e'lon qilamiz.

Umuman, anjuman qudratli davlatlarning mazkur sohaga katta e'tibori bilan birga, yaqin kelajakda SI jadallik bilan rivojlanishidan darak berdi. Bu esa barchamizdan, nafaqat mamlakat, balki har bir kasb, hunar, har bir inson miyosida bu yangilikka jiddiy yondashuvni talab qiladi.

**Ulug'bek IBODINOV,  
jurnalist**

## O'ZBEK ROMANSLARI HAQIDAGI ASAR

Musiqiy asarlarning turli-tumanligini hayotimizni rang-barang qiluvchi, shuningdek, turfa did-saviyadagi tinglovchilar ehtiyojini qondiruvchi ming ko'zli buloqqa mengash mumkin. Ular orasida romans janri intellektual jihat bilan alohida ajralib turadi. Biroq yurtimizdagisi san'at va musiqaga ixtisoslashgan ta'lif muassasalarida bu nozik janrga oid ilmiy-amaliy qo'llanmalar taqchilliq seziladi. Bundan yuz yil oldin jadid bobolarimiz ham musiqiy darslik va qo'llanmalar yetishmovchiligin to'ldirish uchun ushbu yo'nalihsida baholi qudrat ilmiy izlanishlar olib borishgan. Abdurauf Fitrating "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" nomli asari ham ayni ehtiyoj sabab dunyoga kelgan, deyish mumkin.

Bugun ham ana shu ezgu ishlarning uzviy davomi sifatida milliy mumtoz musiqani rivojlanish, jumladan, o'zbek romanlarini tiklash bo'yicha muhim madaniy loyihalarga qo'l urilgani ayni muddaadir. Shu ma'noda, yaqinda nashr qilingan "O'zbek romanlari" va "Sevgi romanlari" kitoblari o'quchilarini musiqi olamiga yaqinlatib, uning siru sinoatlarini teran anglashiga ko'mashadi.

Loyihadan maqsadimiz, o'tgan asming birinchi yarmida o'zbek bastakorlari tomonidan yaratilgan, ammo ovozli yozuvlari hattore arxivlarda ham saqlanib qolmagan romanlar janrini qayta tiklash edi – deydi mazkur loyihasi mualif, O'zbekiston xalq artisti Jenisbek Piyazov. – Biz 13 ta

klassik roman ohanglari va betakror ijrosini notalar bo'yicha qayta tiklash imkoniyatiga ega bo'dik. Ushbu loyihasi o'zbek romanlari rivojlanishi tarixining yangi bosqichini boshlab beradi, deb umid qilamiz. Bu ishni amalga oshirishda bizga katta yordam bergan Olmalik kon-metalluriyiga kombinati va Rossiyaning "Lukoil" kompaniyasi ma'muriyatiga alohida minnatdorlik bildiramiz.

Albatta, ushbu musiqi to'plamlari soha bilimdoni hisoblangan serqirra san'atkor tomonidan yaratilgani uning qadrini chandon oshiradi. Yugoroda tilga olingan nashrilarida turli yillarda ijod qilingan o'zbek romanlarini qayta jondorishga bastagan romanlari o'rinni.

Mazkur noyob madaniy loyihasi O'zbekistonda ushbu yo'nalihsidagi ilk qadam bo'ldi. E'tiborisiga, romanlar ijosining videoyozuvlarini QR-kod orqali tomosha qilish imkoniyati ham mavjud. Qo'sh kitobning muqovalariga O'zbekiston xalq rassomi Akmal Nur chizgan suratlari bilan bezak berilganini ham alohida ta'kidlash jozi.



O'yaymizki, ushbu nashrlar keng kitobxonlar ommasining ham roman janri haqidagi tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi.

Zarnigor IBROHIMOVA



## XOTIRA

Ashraf Ahmedovni taniganimga ham, o'ylab qarasam, yarim asrdan oshib ketibdi. Ilm va fanimiz tarixining zukko bilimdoni, katta tarixchi olim, tarix fanlari doktori, professor; ajoyib kamtarin qalb egasi, nodir iste'dodi bilan ko'p minglab o'quvchilarning hurmat e'tiborini qozongan, rostakamiga zahmatkash inson, safarlarda dilkash suhbatdosh...



## O'Z MAKTABINI YARATGAN OLIM

Ashraf akaning olib borgan ilmiy tadqiqotlariga bir nazar tashlasangiz, uning ilmiy dunyoqarashi teranligining, qiziqish olami naqadar kenglining guvohi bo'fasiz va bundan hayratlashingiz tabiyi. Avvalo, u tariximizning ulug'ligi bilan faxrlanadi, unga adolat bilan yondoshishga intildi, tariximizning sofligi uchun kurashadi.

Ilmiy ko'laming kengligi bu – Xudodan. Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Is'hak Ibn Hishom, Mirzo Ulug'bek... Bu olimlarning har biri o'zi bir olam, ularning ilmiy asarlari esa olamlar ichra olamid. Bu olam ichra kezish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Ashraf Ahmedov bu qutlug' va murakkab vazifaning uddasidan chiqqa oldi. Biz uning monografik asarlарини, risolalarini, ilmiy-tadqiqiy maqolalarini, yetuk tarjimalarini, ularga bitilgan mazmunli so'zboshilarini, ilova etilgan ishonchli izohlarni katta qiziqish bilan o'qiyimiz. Ashraf Ahmedov o'z maktabini yaratara olgan olimdir.

Kitob javonimda shundoq ko'rinish turgan Abu Rayhon Beruniyning (1973) "Tanlangan asarlar" i 5-tomini qo'limga olaman. U ikki qismli. Bu – "Qononi Ma'sudi". Uni nashr etishda Ashraf Ahmedov birinchini kitoba ham maxsus muharrirkil qilgan, ham izohlarni tuzishda qatnashgan, ikkinchi kitobda (1976) maxsus muharrirkidan tashqari so'zboshi yozgan, ko'rsatkichlar tuzgan, izohlarni B.A.Rozengeld bilan birgalikda tayyorlagan.

Olimiz Mirzo Ulug'bekning ilmiy faoliyatini, xususan, uning "Zij"i borasida tadqiqotlar olib boradi. "Mirzo Ulug'bek "Ziji" haqida ba'zi yangi mulohazalar", "Mirzo Ulug'bekning Samarcanddagi ikkinchi madrasasi", "Ulug'bek Muhammed Tarag'ay" risolasi, Ulug'bek kutubxonasi haqidagi va boshqa maqolalari shular jumlasidandir. Yaqinda olimming sa'y-jasorat bilan "Ziji jadidi Ko'ragoniy" kitobi to'rtilda nashr etilgani madaniy hayotimizda katta voqeа bo'ldi.

## JAHON AYVONIDA

### LERMONTOV O'LIMI YUZASIDAN QAYTA TERGOV

Rossiya davlat dumasi deputati Nikolay Burlyayev Tergov qo'mitasiga shoir Mixail Lermontovning o'lmi yuzasidan tergov o'tkazishni so'rab murojaat yo'lladi.



Burlyayevning ta'kidlashicha, ko'p yillarda davomida Lermontovshunos olimlar, kriminalistika, ballistik va tibbiyot sohasidagi mutaxassislar 1841-yilda Lermontov vafotidan keyin o'tkazilgan dastlabki tergov vijdonsizlarcha olib borilganini ta'kidlab kelmoqda.

### REFERENDUM O'TKAZISHGA CHAQIRDI

Armaniston bosh vaziri Nikol Pashinyan umumalq referendumi orqali konstitutsiyani o'zgartirishga chaqirdi.



Bu mamlakatning azalii raqibi bo'lmish Ozarbayjon talab qilgan qadamdir. Ozarbayjonga ko'ra, Armanistonning hozirgi konstitutsiyasi uning hududiga nisbatan bilvosita da've qiladi.

### SOBIQ PREZIDENTGA AYBLOV E'LON QILINDI

Braziliya Bosh prokururasi sobiq president Jair Bolsonaruga 2022-yilgi saylovlardagi mag'lubiyatdan



Braziliya Bosh prokururasi sobiq president Jair Bolsonaruga 2022-yilgi saylovlardagi mag'lubiyatdan

## TALQIN

### SAHNAGA KO'CHGAN

Zahiriddin Muhammad Boburdekk murakkab shaxsiyatni sahnada ko'rsatish oson ish emas. Boburning xarakteri, ruhiyati, botinini to'la anglash va uni dramatik asar sifatida ifodalash uchun dramaturgandan jiddiy izlanish, sahna talqinini yaratishda esa rejissyor-aktyorlardan ariyicha mahorat talab qilinadi. Aslida Bobur bobomizning hayoti ziddiyatlarga boy, har qanday dramatik asar uchun tayyor manba bo'lishi shubhasiz.



"Yulduzli tunlar"  
"Diyord" teatr-studiysi talqinida...

## HIJRON

O'zbek teatri tarixiga nazar tashlasak, Bobur obrazini sahnada gavdalantirish uchun birmuncha izlanishlar kechganini ko'ramiz. Xususan, O'zbekiston xalq artisti Bahodir Yo'idoshev atoqli adib Pirimkul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romaniga ikki bora murojaat qilgan. Dastlab rejissyor asarni 1983-yil Hamza nomidagi teatr (hозиб O'zbek Milliy akademik drama teatri)da sahnaga olib chiqadi.

Rejissyorning avvalgi spektakllarida bo'lganidek, bu safar ham poetik muqaddima, dardchil ruh tomoshaning asosiy uslubini belgilaydi. Sherali Jo'rayev ijrosidagi "Zamon" ashulasi o'tmish manzaralarini jonlantiradi. Qo'qon aravalaringin g'ildirakli go'yo taqdir ganishidek charz urib aylanadi. Yer yuzidan o'tib ketgan avlodlar birma-bir chiqib kelib, tomoshabinga nighog tashlaydi.

Spektakl davomida Bobur hayotining uch davri namoyon bo'ladi: ya'ni, Andijon taxtiga o'tirgan 12 yoshlik chog'i, Sohibqiron bobosi Amir Temurdan meros qolgan sultanatni tiklashi ilinjida Shayboniyxon bilan jang qilib, noiloj Samarcandni boy bergan o'rta yoshlik chog'i, va niyoyat, Hindiston diyorida podshoh bo'lib, ona Vatanini qomsab, o'tgan umrini sarhisob qilayotgan payti. E'tiboril, spektakl davomida bu uch voqeя va muhit taqozosiga ko'ra sahnada tez-tez ko'rinish berib, har bir vaziyat va hodisaga o'z munosabatini bildiradi. Ayrimlarning nazarida ushbu sahnalar real tarixiy syujetga xayoliy-fantastik tus berishga o'xshardi. "Bunda hech qanday mistika yo'q", – deb yozadi Muhsin Qodirov – "Rejissyor buni "Boburnoma" bayoni bilan, shoh Bobur va o'ta yoshli Boburning dramatik holatlarini bilan asoslaydi. Chunki Humoyun kitobni o'qimoqda, shoh Bobur eslamoqda, asosan g'am-anduh va iztirob ila umr manzillarini qayta tasavvur qilmoqda".

Boburning opasi va yaqin maslakdoshi Xonzodabegim obrazini Rimma Ahmedova gavdalantirgan. Aktrisa malikaning qalb tug'yonlari, botiniy kechinmalarini kuchi dard va iztirob bilan ko'satadi. Ayniqsa, Shayboniyxonga nikohlanishidan avval Bobur bilan vidolashuv sahnasida aktrisaning yurak harorati avj pardalarga ko'tariladi, hissiyotlari psixologik bo'yoq bilan qorishib ketadi.

Oradan yillar o'tib, ustoz san'atkor Bahodir Yo'idoshev "Yulduzli tunlar" romanini "Diyord" teatr-studiysida sahnaga qo'yi. Rejissyor bu galgi talqinda romanga o'zgacha uslubda yondashdi – spektaklda barcha ifoda vositalari shartliyka qurilgani, asarning badiy-estetik olami nozik his etilgani, Bobur taqdirining murakkab va ziddiyatlari davri lirik-dramatik ohang va psixologik uslubda aks ettiligani, tarixiy shaxslarni sahnalashtirishga xos an'anaviy stereotiplar chetlab o'tilgani e'tiborni tortadi.

Spektakl ibtidosisida tomoshabinni moziy ruhiyatiga olib kiruvchi sohir va mungli qo'shiq yangraydi. Sahna markazida to'rtburchak supa, ustida Bobur va boburiylar davrini aks ettruvchi miniaturalar yoylib yotibdi, bamisol shu manzara buyuk ajdodimiz bunyod etgan bepoyon sarhadlarni ifodalaydi. Supa atrofiga joylashtirilgan besh-oltita daraxt to'nkalarini vaziyat taqozosiga ko'ra goho taxt, goho beklar yig'iluvchi maskan, gohida esa muhabbat izhori aytiluvchi xilvat go'shaga aylanadi. Sahnaning butun kengligi, chor-atrof quroqlardan iborat to'shamda bilan qoplangan, go'yo bu rang-barang tusdag'i poyondoz inson taqdiridagi turfa chigalliklar, xususan, Bobur yuzlashgan xilmashil ko'rgilikkardan dalolat beradi. Bularning barchasi mahoratlari rassom Bobur Ismoilov ijobiga mansub. Shunday o'zgacha muhit fonida sahnaga birin-ketin aktyorlar chiqib keladi. Spektaklda asosan zamonaviy

so'ng davlat to'ntarishini amalga oshirish uchun fitna yuushitirganlikda rasman ayblov qo'yi.

Respublikaning sobiq rahbari aybini rad etib, siyosiy ta'qiblar qurboni bo'lganini bildirmoqda.

### UKRAINA PRESIDENTI:

#### "DAVLATNI SOTOLMAYMAN"

Ukraina prezidenti amerikalik hamkasbi Donald Trampning da'volari va Rossiyaning bosimiga javob berdi.

Vladimir Zelenskiy AQSh bilan resurslarga kirish bo'yicha bitim tuzishga tayyorligi, lekin buning evaziga Kiyev xavfsizlik kafolatlari talab qilayotgani, AQSh taklif qilgan hujjatda esa bu haqda hech nima ko'rsatilmaganini ta'kidladi.



"AQSh nodir metallar bo'yicha noaniq taklif berdi. Birgina aniq narsa – ular barcha metallarning yarmiga ega bo'lishni xohlaydi. Men "Kelinglar, foizlarni yozamiz. Men Ukrainani himoya qilyapman, davlatni sotolmayman", dedim. Bor gap shu", dedi Zelenskiy.

### SELFİ TUSHGANLARDAN PUL OLMOQCHI

Buyuk Britaniya sobiq bosh vaziri Boris Jonson bilan surtaga tushmoqchi bo'lgan kishi unga 121 funt sterling (1 976 000 so'm) to'lashi kerak. Bu narx ichiga nafaqat surtaga tushish, balki o'zaro qo'si siqishib ko'rishish ham kiradi.



Siyosatchining jamoasi 2-sentyabr kuni Edinburgda bo'lib o'tadigan tadbir uchun chiptalarni allaqachon solishni boshlab yuborgan.





## MILLAT FIDYOYLARI

Tarix – kimga g’alaba nashidasini tortiq qilib, yana kimlarga mag’lubiyat alamlarini tottirgan jang-u Jadallar; tarix – jon berib, jon olishlar, o’zlik uchun kechilgan mardonavor yo’, Jur’at-jasorat; tarix – dars, saboq va taassufki... zo’rlik va xo’rlik ko’zgusi hamdir. Ko’plab repressiv rejimlar o’z maqsadlariga erishish uchun aybsiz insonlar ustidan turli tuhmat-u bo’htonlar yog’dirib, ularni qiyonoq bilan “aybiga iqror” bo’lishga majburlaganiga tarixning o’zi guvoh. Ayniqsa, 1937-1938-yillar qatag’oni davrida bunday holatlar keng tarqalgan edi.



Abdukarim Abduvahobxo’jayev Qo’qon muxtoriyatinining a’zosi, aksilinqilobi Sh’oyroi islam va “Milliy ittihod” tashkilotlarining faollaridan bo’lgan.

Qahramonimiz 1936-1937-yillari o’z xonardonida “aksilinqilobi” guruhlarining bir necha kengashlarini o’tkazish uchun shart-sharoitlar yaratib bergan”likda ayblanadi. Keyinchalik bu kengashlarda “Milliy ittihod” tashkilotining Qo’qon, Marg’ilon, Farg’ona va boshqa filiallari rahbarlari qatashganligi kabi vajlar pesh qilingan.

1938-yil 14-oktyabr Toshkentda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi sayor sessiyasiga tuzilgan aktga ko’ra, 36 nafar mahbus otuvga hukm etilgan va bu ro’yxatda Abdukarim Abduvahobxo’jayevning ism-sharifi ham keltilgan edi.

Qatag’on qurbanolarning oilalari ko’pincha “xalq dashmanlarining xotini” yoki “bolasi” degan tamg’a bilan el-yurtdan ajratilib yakkalangani yetmaganidek, ta’lim olish, ish topish, hatto oddiy fuqarolik huquqlaridan foydalanishda jiddiy muammolarga duch kelgan. Ayrim hollarda qamal-gan jadidlarning oilalari uyi va mulkidan ayligan, ba’zilari Sibir

yoki Markaziy Osiyorning chekka hududlariga surgun qilingan. Farzandlari ota-onasiz qolib, yetimxonaga topshirilgan yoki yolg’izqo’l onalar jarigbandlarini boqishga qurbi yetmay “detdom”ga topshirishga majbur bo’lgan. Tabiiyki, bu sinovlar Abdukarim Abduvahobxo’jayev oиласini ham chetlab o’tmadidi.

Stalin vafotidan keyin, ayniqsa 1950-yillarning oxiri va 1960-yillarda qatag’on qurbanolarning “oqlash” kampaniyasi boshlanib, bu jarayon ko’p-chilik jadidlarning farzandlari, yaqinlariga umid bag’ishlagandi. Ular nohaq qamalib, qurban bo’lib ketgan yaqinlarining nomini reabilitatsiya qilish uchun SSSR prokururasi, KGB va boshqa organlarga ariza bilan murojaat etgan.

Jumladan, Abdukarim Abduvahobxo’jayevning oila a’zolari ham 1956-yil 3-mayda O’zbekiston SSR prokurori nomiga ariza bilan chiqishi. Arizada shunday ma’lumatlar keltiriladi: “1937-yil avgust oyida otamiz Abdukarim Abduvahobxo’jayev O’zSSR NKVD tomonidan hibsga olinib, bir yildan ortiq Farg’ona shahrida tergovda bo’lib, so’ng alohida jinoyatda abylib, Shimolga jo’natilgan. Onamiz ham,

biz ham oilada kattalar emasiz va, albatta, o’sha paytda biz otamizga qarshi ochilgan jinoyat ishini hal qilish uchun adolatli tergov qilinishinga erisha olmadik.

Bizga yetib kelgan ma’lumatlardan ma’lumki, Markaziy Komitetning sobiq kotibi Ikromov va Mo’tabarxon opamizning tur mush o’tog’i Toshkent shahar komitetining sobiq kotibi Boltaboyevlarning hibsga olinishi munosabati bilan otamiz ham hibsga olingan. Bizga qisman ma’lumki, otamizga tergov organlari tomonidan oldindan tayyorlab qo’ylgan ma’lumotlarga majburan imzo qo’ydirib, noqonuniy tergov usullari qo’llangan. Qamoqdaligi paytida uchrashganimizda otamidan bir nechta eslatma oldik. Oxirgi eslatmalarida otam hech qachon qilmagan ishni imzolashga majbur qilinayotgani va tergov harakatlari oriq chiday olmasligini yozgan. Balki bunga chiday olmay imzo chekkandir.

...Biz otamizing ishni ko’rib chiqishni so’rab, qayta-qayta ariza yozdik, ammo javob bo’lmadi. Hammamiz hamon aksilinqilobchining qizi degan tamg’ani his qilmoqdamiz va bizning ish, ijtimoiy faoliyatimiz ma’lum darajada cheklangan.

Bundan tashqari, 19 yil davomida bizni ko’pincha shubha ostiga olishdi. Bu ma’lum darajada bizning erlarmizga ham ta’sir qildi, ular ham vaqt-vaqt bilan qoralandi.

Otamizingning ishni sinchiklab o’rganib, agar u tirik bo’lsa, reabilitatsiya qilib, olimiziga qayta-qayta chiqarishgizni, agar u o’lgan bo’lsa, uning sharafli ismini tiklab berishingizni so’ravymiz”.

Ma’lumki, 1937-1938-yillarda O’zbekistonda “xalq dashman” deb otilgan, uzoq muddatga qamoq jazosiga tortilgan yoki GULAG lagerlariga surgun qilingan kishilar nomini oqlashda O’zbekistonning

ikki buyuk davlat arbobi – ilk o’zbek siyosatchilaridan Nuriddin Muhiddinov va akademik Xadicha Sulaymonovning xizmatlari beqiyos. Aynan ularning sa’y-harakati bilan Sovet Ittifoqi respublikalari orasida mustabid sovetlarning qatag’on siyosati va uning oqibatlarini tugatish, qatag’on qilinganlarni reabilitatsiya qilish borasida peshqadamlik bida bo’lgan.

Nuriddin Muhiddinov akademik Xadicha Sulaymonova haqida shunday deydi: “Moskvaga borib, bosh prokurator Roman Rudenkonning kabinetida o’tirganimizda, uning muovini va ikki xodim papkalarini ko’tarib kirishdi va muhokama boshlandi.


Meni zavqlantirgan va faxrlantirgan narsa shu bo’ldiki, ularning har bir savoliga javob qaytarishda, hujjatlarga baho berishda yoki ularning gumon qilgan joylarini tushuntirishda Xadicha o’zining olimligi, donoligi, qonunlarni yaxshi bilishi va mustahkam irodasini ko’rsatdi. Uzoq Andijondan chiqqan bir o’zbek qizi shunday mashhur prokuromi ham, uning mas’ul xodimlarini ham qoyil goldirdi.

Osha yillari O’zbekistonda 40 mingga yaqin “xalq dashman” deb otilgan yoki uzoq muddatga surgun qilingan kishilarni oqlashda kerak edi. Bu tarixiy ishga Xadicha Sulaymonova o’ziga xos hissxa qo’shi”.

Abdukarim Abduvahobxo’jayev turli bo’htonlar bilan qatag’onga uchrangan va keyinchalik oqlangan o’sha 40 ming kishidan biri edi. Uning sharafi nomi, kechikli bo’lsa-da, aybsizlar ro’yxatida tikiandi. Ammo... millatning juvonmarg oyindilarini, ularning jabriyida jariglarining zavoli va uvoli qatol sovet tuzumining bo’ynida abadiy tavqi la’nat bo’lib goldi.

Rustambek SHAMSUTDINOV, tarix fanlari doktori, professor

## XOTIRA AZIZ



## QATAG’ON

## QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o’tgan sonlarda).

**Mo’mjon Hakimov** – 1896-yili Andijon shahrida tug’ilgan. Jamg’arma kassasida g’aznachi bo’lib ishlagan. 1929-yil 6-noyabrdagi qamoqqa olingan. Namangandagi “Milliy istiqlol” tashkiloti a’zosi bo’lgan. Usmon Akromi tomonidan unga berilgan maxfyi dasturni o’zida saqlagan. OGPUning 1931-yil 25-apreldagi qarori bilan RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 2-, 4-, 10-bandlari bilan ayblanib, 10 yil konslagerga hukm etilgan. 1989-yil 30-martda reabilitatsiya qilingan.

**Jalol Sa’diyev** – 1901-yili Andijon shahrida tug’ilgan. 1929-yil 8-noyabrdagi Namangandagi “Milliy istiqlol” tashkiloti a’zosi ekanligi uchun OGPU xodimlari tomonidan hibsga olingan. OGPUning 1931-yil 25-apreldagi qarori bilan RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 2-, 4-, 10-bandlari bilan ayblanib, 10 yil konslagerga hukm etilgan. 1989-yil 30-martda reabilitatsiya qilingan.

**Sayfi Kamolov** – 1891-yili Andijon shahrida tug’ilgan. 1929-yil 12-dekabrda “Milliy istiqlol” tashkilotining Namangan filialidagi “Milliy qo’mita”ning Andijon sho’basiga a’zo bo’lgani uchun hibsga olingan. OGPUning 1931-yil 25-apreldagi qarori bilan RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4-, 11-bandlari bilan ayblanib, 5 yil konslagerga hukm etilgan. 1989-yil 31-martda reabilitatsiya qilingan.

**Ismoil qori Otaboyev** – 1893-yili Namangan shahrida tug’ilgan. 1930-yil 5-noyabrdagi OGPU tomonidan qamoqqa olingan. “Milliy istiqlol” tashkilotining Namangan filiali a’zosi bo’lgan. OGPUning 1931-yil 25-apreldagi qarori bilan RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4-, 11-bandlari bilan ayblanib, 5 yilga konslagerga yuborilgan. 1989-yil 30-martda reabilitatsiya qilingan.

**Abdulla hoji G’ofurov** – 1884-yili Andijon shahrida tug’ilgan. 1929-yil 6-noyabrdagi “Milliy istiqlol” tashkilotiga a’zo bo’lgan. Bosmachilik harakatini qo’llab-quvvatlaganlikda, bosmachilarga pul bilan yordam berishda, yig’ilgan mablag’larni bosmachilarga o’zining tanishlari orqali yetkazish bilan shug’ullaniganlikda aybdor deb topilgan. OGPUning 1931-yil 25-apreldagi qarori bilan RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 2-, 4-, bandlari bilan ayblanib, 10 yil konslagerga hukm qilingan. 1989-yil 30-martda reabilitatsiya qilingan.

**Shirmon qori Toshmatov** – 1900-yilda Andijon shahrida tug’ilgan. “O’zbeksavdo”da ishlagan. 1931-yil 17-yanvarda hibsga olingan. Sayfi Kamolovning taklifi bilan “Milliy istiqlol” tashkilotining Andijon filialiga a’zo bo’lgan. OGPUning 1931-yil 25-apreldagi qarori bilan RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4-, 11-bandlari bilan ayblanib, 10 yil konslagerga hukm etilgan. 1989-yil 30-aprelde reabilitatsiya qilingan.

**Usmon Akromiy** – 1903-yili Namanganda tug’ilgan. Samarqand shahrida “Qizil O’zbekiston” gazetasi adabiy xodimi bo’lgan. 1929-yil 11-dekabrda OGPU xodimlari tomonidan “Milliy istiqlol” ning Namangan filiali kotibi bo’lgani, yangi a’zolarni tashkilotga jalb qilgani uchun hibsga olingan. OGPUning 1931-yil 25-apreldagi qarori bilan RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4-, 10-bandlari bilan ayblanib, 10 yil konslagerga hukm etilgan. 1989-yil 29-martda reabilitatsiya qilingan.

**Azizbek MAHKAMOV, tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori, Nigoraxon AKBAROVA, muzeysi ilmiy xodimasi.**

(Davomi kelgusi sonda).

## JARAYON

...Kuni kecha buyuk jadid bobomiz Abdulla Qodiriy uy-muzeysi qadim noyob ashyo bilan boyidi – Xorazmdan bir yuz yigirma yoshi sheshik keltirildi. O’ymakorlik san’ati namunasini bo’lgan qo’shtabaqali eshikni asrab-avaylab kelgan birodarim Sherzodbekning aytishicha, otasining bobosi ma’rifatparvar inson o’tgan, o’z uyida maktab oshgan, ushu eshik maktab xonasiga o’rnatalgan. O’sha vaqtida maorif sohasiga katta e’tibor qaratgan jadidlar yangi ochilgan maktaba kelishgan va, albatta, ushu eshikda ularning qo’l izlari qolgan bo’lsa ne ajab!



...Jadidlar odamlarni ilm-u ma’rifatga chorlash asnosida ularning kerakli kasb-hunar egalari bo’lib yetishishlari, ulusning shu boradagi ehtiyojlari qondirishga xizmat qilishlari uchun ham qayg’urishgan. Abdulla Qodiriyning bo’sh vaqtida duradgorlik qilgani, vassajuft yasaganini eslang (bugun bobosining ushu kasbini nevarasi Sherkon davom ettiyapti).

...Boshlamadagi eskartishlardan so’ng aytmoq bo’lgan iddaomizga – bugunda shu sohada amalga oshirilayotgan ishlarga yuzlanamiz. Qadim Xorazmda hunarmandchilikning barcha yo’nalishlari taraqqiy topgan. Vohalik hunarmandlar yasanigan jihozlar o’z vaqtida Sharq-u Garb bozorlariga yetkazib berilgan. Ayniqsa, mohir ustalar tomonidan yasalgan, imoratlar bezagi bo’lmish eshik-derazalar, o’ymakor ustunlar ta’riflari uzoqlarga ketgan. Xonlikda bu borada xonqalik ustalar deng qozongan. Xonqa kollari va hunarmand ustulari yasagan buyumlar, duradgorlik namunalari jahoning bir qator muzeylarida ko’rgazmaga qo’yligani bejiz emas.

Bugun xonqalik hunarmand ustamebelsozlar bobolari san’atiga asosiy da’vogar bo’lib, uni qol’ba

lar yasashmoqda. Aholi turarjoylarigina emas, maktabgacha ta’lim tashkilotlari va boshqa muassasalarga ham buyurtma asosida turli o’lchamdagagi mebellari yetkazib berishyapti. Ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni bugun qo’shni Qoraqalpog’iston Respublikasi va boshqa viloyatlar aholisi ham ma’qul ko’rib xarid qilishmoqda.

Sobiq Ittifoq vaqtida qo’lida ortiqcha mablag’i bor odam xorijda ishlab chiqarilgan mebel topish taraddudiga tushardi. Finlyandyo yoki boshqa davlatlarda ishlab chiqarilgan mebellarning bozori chaqqon... asosan peshtaxta tagidan, tanish-bilish orqali topilardi. Endilikda mahalliy ishlab chiqaruvchilar – hunarmandlar xorij mebellari bozoriga ham raqobat ko’rsata boshlashdi.

...Ikki yil oldin katta qizim yangi imoratga ko’chib o’ganida, nevalarim dars tayyorlashlari uchun mos stol-stul xarid qilish maqsadida yo’lga oltanib turganimni ko’rib “Xonqaga borib yurasizmi, Bog’otda ham mebel do’konlari ish boshlabdi”, deb qoldi. Tuman markazidagi yangi do’kon va ustaxonani, unda qatorlashtirib qo’yligan shakf, javon, stol-stullar, yotoq jihozlarini ko’rib quvondim. Tadbirkorga qachon ish boshlashgani haqida bergan savolimga javobdan so’ng hayratim oshti. Sabab, hunarmand-tadbirkor xonqalik bo’lib, Bog’ot tumani markazi va yana Dehqonobod qishlog’ida ham shunday ustaxona va do’konlar ochgan ekan. Oldinlar viloyat markazida “Xonqa mebel”

xonqalik usta-hunarmandlar yuz turdan ortiq, jahoniyo andoza-dagi sifatlari va hamyonbop mebelsozlar hissasiga to’g’ri keladi.

Xonqalik usta-hunarmandlar yuz turdan ortiq, jahoniyo andoza-dagi sifatlari va hamyonbop mebel

## MILLIY BRENDGA AYLANGAN VORISLIK



...Xonqalik sanoat darajasiga ko’rinishdan sanoat qurish uchun yer ajratishi natijasida ikki qavatlari, har tomonlarga qulay binolar paydo bo’ldi. Bu binolar nafaqat ishlab chiqarish maskani, ayni paytda mahsulotlar ko’rgazma zallariga ham ega. Shu bilan birga xarid xordor olgan mebellarni uylariga yetkazib va o’rnatib berish xizmati ham yo’lga qo’yligani mijozlar soni tobora oshishini ta’minlayapti. Qisqasi, bugun viloyatda ishlab chiqarilayotgan mebellarning deyarli yarmi xonqalik mebelsozlar hissasiga to’g’ri keladi.

Xonqalik usta-hunarmandlar yuz turdan ortiq, jahoniyo andoza-dagi sifatlari va hamyonbop mebel

yoriqli binoga ko’zim tushib, qadim el hunarmandlarining “el ichiga yurishlari”dan qovongandim.

“Birlashgan o’zar...” deyilmish otaso’zimiz mazmunidan kelib chiqib, tuman hunarmandlari shu kungacha yakka tartibda faoliyat yuritsalar-da, allaqachon butun viloyatda o’zlari ishlab chiqarayotgan mebellar brendini yaratishganli tahsinga loyiq edi. Endi esa...

Prezidentimizning “Respublika hududlarida mebelsozlik sanoatini rivojlantirishga qaratilgan choratadbirlari to’q’risida”gi qaroridan so’ng tumanning Madir qishlog’idagi “Do’stlik” mahallasida kichik iqtisodiy zona qurilishi boshlandi. Bu yerdan 60dan ortiq loyiha amalga oshirilmoqda. Ushbu loyiҳalar hunarmandlar qo’l mehnatini yengilashirish, ishlab chiqaradigan mahsulotlari sifatini oshirishga xizmat qildi. Keng va zamonaviy sexlarga eng so’ngi rusumdagি duradgorlik dastgohlari o’rnatalidi, kerakli texnika va



SUD OCHERKI



...Dilshodga pasporti zarur bo'lib qoldi. Ammo uyni ag'dar-to'ttar qilib izlab topolmadi. O'zi shunaqa, shoshganda labbay topilmaydi. Ertasi kuni ham shu ahvol. Boshqa chora qolmadı, tuman ichki ishlari bo'limga bordi. Uch-to'rt oylardan beri hujjatini topolmayotganini, yo'qolgani uchun o'rniiga yangisini berishlarini so'radi. Uning talabi qondirilish jarayonida ichki ishlari xodimining savoli kapalagini uchirib yubordi:

— Yaqindagina nikohdan o'tgan ekansiz-ku?!

— Nikoh? Qanaqa nikoh? Men uylanmaganman!

— Dilshod Elmurodov haqiqatan sizmisiz?

— Xuddi shunday.

— Nigora Arslanova bilan qonuniy er-xotinsiz. Tuman FHDYdan shu oyning 25 sanasida qonuniy nikohdan o'tgansiz...

— Qanaqsiga, men hech qanday Nigoranani tanimayman, axir?

FHDY idorasiga borgunicha o'ylab o'yiga yetolmadi. Mudriga o'zini tanishitrib, qo'lidiagi yangi pasportini uzatdi. Mudira ham o'sha fikrlarni tasdiqladi va tegishli hujjatlarni ko'rsatdi. Uning aytishicha, o'tgan oyda Nigora Arslanova va Dilshod Elmurodov ism-familiali shaxslar organga ariza bilan murojaat qilgan, ularga berilgan yo'llanma asosida yoshlar tibbiy ko'rakdan o'tib kelishgan, nikohlarini rad etishga asos bo'lmagani uchun nikoh tuzilgani haqidagi guvohnoma berilgan.

— To'g'ri, Dilshod Elmurodov menman, ammo Nigora Arslanova bilan nikohdan o'tmagandan, ushbu hujjatlar soxta. Arizadagi imzo ham, yozuv ham menga tegishli emas. Iltimos, ushbu nikohni bekor qiling...

Dilshodning murojaati shu yerning o'zida rasmiylashtirildi va darhol hujjatlar to'planib, ushbu xatolikni bartaraf etish uchun tuman II Bga yuborildi.

Qadri o'quvchilarimizda savol tug'ilishi tabiiy: "Unda bu nikoh qanday amalga

## TILBILIM

**"BIRPAS'MI,  
"IKKIPAS"? ..**

"Biz bilan birpas o'tiring", deymiz. Umuman, birpas so'zini biz ko'p ishlatalamiz. Lekin uning tarixini, kechmishini, sakkiz og'a-inidan bi o'zi yolg'iz qolganini, yetti aka-ukasi esa, tarix to'zonalarida yo'q bo'lib ketganini bilmaymiz.

Qizig'i shundaki, birpas so'zidagi pas qismi tilimiz tarixida "kechaning sakkidan biri" degan ma'noni anglatgan. Shuning uchun ham, kechaning bir pasi, kechaning ikki pasi, uch pasi, to'rt pasi, besh pasi, olti pasi, yetti pasi, va niyoyat, sakkiz pasi kabi iboralar tilimizda ishlatalgan. Bir kecha sakkiziga bo'lingan. Xullas, ular jami sakkiz qo'shingan. Shuningdek, pas so'zinig "rioya, e'tibor", "saqlash, qo'riqlash"

degan ma'nolari ham bo'lgan. Birpas so'zining paydo bo'lish tarixi "O'zbek adabiy tili leksikasi tarixi" kitobida shunday izohlangan. Yaponlarda ham shunga o'xshash holat - kechaning hayvonlar nomi bilan soatlarga bo'linishi bor.

Zahiriddin Muhammad Boburning quyidagi gapi ham kechaning aniq paslarga bo'linishiga dalil bo'la oladi.

Kechaning uch pasig'acha yo'l yurdik. ("Boburnoma"dan).

Bir pos chu tundin o'tti ul xayl, Tushluq tushi qildi uyqug'a mayl. (Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonidan).

Eshqobil SHUKUR

# SOXTA NIKOHNING KASOFATI

rasmiylashtirib bo'lgach, pasportni egasiga qaytarib bermagan, Dilshod ham buni unutib yuborgan edi). — Qara, unga juda o'xshaysan, sen Dilshod rolini o'ynaysan, birga borib ariza topshiramiz va nikohdan o'tamiz! Pasportning mana bu yerida men va Dilshodning er-xotin ekanimi muhrlansa, bo'ldi. Iltimos, mena yordam ber!

U shunday deya duv-duv ko'zyosh to'kdi, o'zini jabranchuvchi ojiza qilib ko'rsatdi. Emishki, Dilshod uni yillar davomida aldbel, endi boshqasiga uylanmoqchi. Shu bois undan o'ch olmoqchi, ya'nii rejasni amalga oshib nikohni qayd ettirib olsa, u kimga uylanishini bilsa, bo'lajak xotiniga ko'rsatib, to'yini buzadi, noiloj qolgan yigit axiyri Nigoraga uylanadi. Bu "savob"li ish kelgusida boshqa bevafolarga ham saboq bo'larmish. Qizning baxtiga O'ktam "mard" chiqdi, qo'shishga yigitning ta'zirini berishga hissa qo'shishga rozilik berdi.

## FHDY sari yo'l

Xullas, Nigora va "Dilshod" pasportlari bilan birga tumandagi FHDY bo'limiga borib, ariza berdi. Ariza kompyuterda to'Idirildi, imzolandi. So'ng taomilga ko'ra ikki yoshga tibbiy ko'rakdan o'tib kelishlari uchun yo'llanma berildi. Shu asosda tuman tibbiyot birlashmasiga borib, u yerda barcha do'xtirlardan o'tishdi. Hammasi risoladagidek, tibbiy ko'rak xulosasi a'lo. Qurabsizki, Nigora va Dilshodning nikohi qayd etilib, bu haqda guvohnoma ham rasmiylashtirildi. O'zi orzu qilgan inson bilan nikohi qonuniy qayd etilganini tasdiqlovchi guvohnomani qo'iga kiritgan Nigora juda xursand edi.

Ammo shodligi uzoqqa bormadi...

## Hojatbaror

Sudda "hojatbaror" O'ktam Orziqulov o'z aybiga iqror bo'lib, Dilshod Elmurodovni tanimasligi va bu ishidan hech qanday mulkiy manfaatdor emasligini aytди. Bordiyu, kelgusida jinoyati fosh bo'lsa, barchasi uchun javobgarlikni Nigora o'z zimmasiga olganini, uni sotmaslikka va'da berganini va odamgarchilik yuzasidan bu tomoshadqa qatnashishga rozi bo'lganini ta'kidladi. E'tibor beryapsizmi, "odamgarchilik yuzasidan" qo'l uribdi. Kulishniyam, yig'lashniyam bilmaysan. 21 yoshi, aqli raso yigitning so'zimi shu?! Odamgarchilik aslida Nigora qing'irlilikka qadam qo'yayotganda uni bu yo'ldan qaytarishdan boshlanmasmidt! Yolg'on bilan boshlangan turmush uzoqqa bormasligi, nikoh ikki tomonning ko'ngil roziliklari, otanonalarining duolari bilan mustahkam bo'lishini, bir taraflama istak, hoy-u havaslar ustiga qurilmasligini singdirish bilan bo'lmasmidi?

## Esiz, yoshlik!

Nigora 23, O'ktam 21 yoshda. Umrlarining shu faslida sudlanganlik tamg'asi bilan "siylanishdi". Qo'shimchasiga, oylik ish haqidan 20 foiz miqdorida davlat daromadiga ushlab qolish sharti bilan 2 yil axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlandi.

Nurxon ELMIRZAYEVA

Ocherk Jinoyat ishlari bo'yicha Pastdarg'om tuman sudida ko'rilgan materiallar asosida yozildi.



## QALIN QONLIKITOB

sababi yana o'zimiz: tabiatga befarqlik, shafqatsiz munosabat. Raqamlarga nazar solsak, 2020-yilning o'zida 337 bosh noyob hayvon va parrandalor noqonunyu ovlangani qayd etilgan. Yo'qolib ketayotgan hayvon turlarini ovlash qat'yan man etilgan bo'lsa-da, bu jarayonga hali butkul barham berilganicha yo'q. Shubhasiz, tabiatga bunday sovuqqon munosabat "Qizil kitob"ni kattartirish bilan birga, ekologiyaga jiddiy zarar yetkazadi. To'g'ri, yurtimizda tabiat muhofazasiga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilmoqda. Lekin...

Tabiat bir butun, yaxlit jonli tizim. Uni bo'laklarga bo'lib, de-

Jadid  
adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy hujjalik gazeta

Muassislar:



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVİYAT  
VA MA'RİFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLİKASI  
FANLAR AKADEMİYASI



MILLIY MASS-MEDIANI  
QOL'LAB-QUVVATLASH  
VA RIVOJLANTIRISH  
JAMOAT FONDI



"SHAHIDLAR XOTIRASI"  
JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:  
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:  
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:  
Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:  
Erkin Yodgorov  
Nigora Tosheva

Mualif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar mualifiga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi..

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda  
O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administrativasi  
huzuridagi Axborot va omavviy  
kommunikatsiyalar agentligi  
tomonidan 195115 raqam  
bilan ro'yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi addadi – 8 568  
Lotin yozuvidagi addadi – 12 606  
Media kuzatuvchilar – 23 290

Buyurtma: G – 240.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:  
Toshkent shahri,  
Shayxontohor tumani,  
Navori ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxon: (71) 203-24-20  
Devonxon: (97) 745-03-69  
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17  
Jadid\_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
bosmaxonasi:

Bosmaxona manzili:  
Toshkent shahri,  
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqt: 21:00  
Bosishga topshirildi: 23:00  
Sotuvda narxi erkin.



Kumush QARSHIBOYEVA,  
Facebook